Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

[1]. Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish (hujjatlar to‘plami). Toshkent, A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007”.

[2]. Islomov E., Yo‘ldoshev E. Maktab kutubxonasi ishini tashkil etish. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992, 124-bet.

[3]. Yo‘ldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon. Toshkent, 2003, 96-bet.

[4]. Yo‘ldoshev E. Kutubxonada bolalar o‘qishiga rahbarlik qilish. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2002, 112-bet.

[5]. Krashen S. The Power of Reading: Insights from the Research. Portsmouth: Heinemann, 2004, 199 p.

[6]. Sulzby E., Teale W. Emergent Literacy. Handbook of Reading Research. Vol. II. New York, Longman, 1991, p. 727–757.

[7]. G‘aniyeva D. Ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda axborot-resurs markazlarining roli. Toshkent, Milliy kutubxona nashriyoti, 2009, 88-bet.

[8]. O‘zbekiston Respublikasi Kutubxona Assotsiatsiyasi. Bolalar kutubxonalarida tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha amaliy qo‘llanma. Toshkent, 2020.

[9]. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni (yangi tahriri). Toshkent, 2020.

Xabibullaeva Guljaxan Kengesbaevna (Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti)

CHET TILLARINI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada chet tillarini o‘qitishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari, uning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda asosiy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, “yondashuv” tushunchasining metodik talqini, kommunikativ yondashuvning ilmiy asoslari va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy ta’lim standartlari hamda boshlang‘ich sinflarda chet tilini o‘qitish jarayonida kommunikativ yondashuvni qo‘llashning ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ yondashuv, kommunikativ kompetensiya, chet tili o‘qitish metodikasi, nutqiy faoliyat, ta’lim tamoyillari, boshlang‘ich ta’lim.*

Хабибуллаева Гулжахан Кенгесбаевна (Докторант Каракалпакского государственного университета)

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы коммуникативного подхода в обучении иностранным языкам, этапы его становления и развития, а также его основные характеристики. Анализируется методическая интерпретация понятия «подход», научные основы коммуникативного подхода и его роль в формировании коммуникативной компетенции. Особое внимание уделяется современным образовательным стандартам и значению использования коммуникативного подхода в обучении иностранному языку в начальной школе.*

Ключевые слова: *коммуникативный подход, коммуникативная компетенция, методика обучения иностранным языкам, речевая деятельность, образовательные принципы, начальное образование.*

Xabibullaeva Guljaxan Kengesbaevna (Doctoral researcher at Karakalpak State University)

SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE COMMUNICATIVE APPROACH IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Annotation. *This article examines the theoretical foundations of the communicative approach in foreign language teaching, its stages of formation and development, and its main characteristics. It also analyzes the methodological interpretation of the concept of “approach,” the scientific basis of the communicative approach, and its role in developing communicative competence. Special attention is given to modern educational standards and the importance of applying the communicative approach in teaching foreign languages at the primary school level.*

Keywords: *communicative approach, communicative competence, foreign language teaching methodology, speech activity, educational principles, primary education.*

Kirish. Metodik adabiyotlarda “yondashuv” tushunchasi ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladigan tamoyillar hamda strategiyalar tizimi sifatida izohlanadi. Ushbu tushuncha negizida o‘quv jarayonining mazmuni va tashkil etilishiga yo‘nalish beruvchi muayyan konseptual g‘oya mujassamdir. Chet tillarini o‘qitish metodikasida esa yondashuv tilni o‘rgatish jarayonini tashkil etish va boshqarishning umumiy yo‘nalishi sifatida talqin qilinadi.

Metodik manbalarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu atamaning mazmun-mohiyatini aniqlash borasida mahalliy va xorijiy olimlar orasida yagona qarash shakllanmagan. Biroq aksariyat tadqiqotchilar yondashuvning tizimli va yaxlit xarakterga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Chunki ta’lim jarayonining barcha tarkibiy elementlari o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritadi va bir vaqtning o‘zida ma’lum darajada mustaqillikni ham saqlab qoladi. Yondashuvning muhim jihatlaridan yana biri uning aniq maqsadga yo‘naltirilganligidir. Ya’ni, u ta’lim jarayonida belgilangan vazifalar va kutilayotgan natijalarga erishishni ta’minlaydi. Bundan tashqari, yondashuv ochiq tizim sifatida namoyon bo‘lib, metodika faniga tegishli tamoyillar bilan bir qatorda boshqa fanlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qarash va prinsiplarni ham o‘z tarkibiga qamrab olishi mumkin [1;68-b.].

Shuni ham ta’kidlash lozimki, yondashuvlar muayyan ta’lim maqsadlari asosida shakllantiriladi. Mazkur maqsadlar esa jamiyat ehtiyojlari, fan taraqqiyotining hozirgi bosqichi hamda yondashuv qo‘llaniladigan ijtimoiy-pedagogik muhit bilan belgilanadi. Bundan tashqari, yondashuv ta’lim tamoyillarida o‘z aksini topadi va aynan shu tamoyillar o‘qitish metodlarini tanlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim mazmuni, bilimlarni o‘zlashtirish usullari hamda o‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari ham tanlangan tamoyillarga bog‘liq holda belgilanadi [o‘sha manba]. Demak, muayyan yondashuvning tanlanishi butun ta’lim jarayonining mazmuni va samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot doirasida kommunikativ yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Buning asosiy sababi shundaki, zamonaviy chet tili o‘qitish metodikasida nutqiy muloqotni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan, nutqiy muloqotni o‘qitishga qaratilgan turli yondashuvlar, jumladan, funksional-kommunikativ, kommunikativ-faoliyatga asoslangan, kommunikativ-kognitiv va boshqa yondashuvlar shakllangan. Ushbu yondashuvlarning barchasi o‘z negizida kommunikativ yondashuv g‘oyalariga tayanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda metodik adabiyotlarni tahlil qilish, ilmiy manbalarni qiyosiy o‘rganish va konseptual yondashuv asosida nazariy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, kommunikativ yondashuvga oid mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari (E.I.Passov, J.Richards va T.Rogers, E.V.Turkovskaya, L.N.Golub, L.B.Ikramova, A.A.Ikramova va D.S.Ruziyeva va V.A.Maraxova) qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda chet tillarini o‘qitishda kommunikativ yondashuvning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish va tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogik va lingvodidaktik yondashuvlar, xususan, kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy-metodik usullardan foydalanildi:

•*Nazariy tahlil usuli* – chet tillarini o‘qitish metodikasiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda normativ hujjatlar (jumladan, davlat ta’lim standartlari) o‘rganildi va tizimlashtirildi.

•*Qiyosiy tahlil usuli* – turli olimlarning (E.I.Passov, J.Richards, T.Rogers, E.V.Turkovskaya va boshqalar) kommunikativ yondashuv haqidagi ilmiy qarashlari solishtirildi hamda umumiy va farqli jihatlar aniqlandi.

•*Umumlashtirish va tizimlashtirish usuli* – olingan nazariy ma’lumotlar asosida kommunikativ yondashuvning asosiy xususiyatlari, tamoyillari va tarkibiy komponentlari umumlashtirildi.

•*Konseptual tahlil usuli* – “yondashuv”, “kommunikativ kompetensiya” va “kommunikativ yondashuv” tushunchalarining ilmiy-metodik mazmuni aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Kommunikativ yondashuvning chet tillarini o‘qitish metodikasida shakllanishi XX asrning 70–80-yillariga to‘g‘ri keladi. Uning vujudga kelishi Yevropa va AQSHda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar hamda xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning keskin ortishi bilan bog‘liq. Mazkur davrgacha ta’lim jarayonida, asosan, grammatik-tarjima yondashuvi qo‘llanilgan bo‘lib, u tilni uzoq muddat davomida o‘rganayotgan o‘quvchilar uchun ma’lum darajada samarali hisoblangan. Biroq qisqa vaqt ichida tilni amaliy maqsadlarda qo‘llashi zarur bo‘lgan katta yoshdagi o‘rganuvchilar uchun ushbu yondashuv yetarli natija bermagan. Shu sababli muloqotga yo‘naltirilgan va amaliy samaradorligi yuqori bo‘lgan kommunikativ yondashuv shakllana boshladi [2;122-b.].

Buyuk Britaniyada kommunikativ yondashuvning rivojlanishi o‘sha davrda keng qo‘llanilgan situativ yondashuv samaradorligining qayta ko‘rib chiqilishi bilan bog‘liq. Tadqiqotchilar K.Candlin va H. Widdowson tilni muvaffaqiyatli egallash faqat uning grammatik tuzilishini o‘zlashtirish bilan cheklanmasligini ta’kidladilar. Ularning fikricha, tilni o‘rganishda grammatik qoidalardan ko‘ra muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va tilning kommunikativ funksiyalarini egallash muhimroq ahamiyatga ega [3; 59].

J.Richards va T.Rogers esa kommunikativ o‘qitishni yondashuvdan ko‘ra metod sifatida talqin qiladilar. Ular ushbu metodning mohiyatini tavsiflar ekanlar, chet tilini o‘qitishda ta’limning maqsad va tamoyillari, o‘qitish usullari, topshiriqlar tizimi, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchining dars jarayonidagi o‘rni muhim omillar ekanligini qayd etadilar [4;171-b.].

E.I.Passovning ta’kidlashicha, kommunikativ yondashuv bir qator muhim nazariy qoidalarga asoslanadi. Avvalo, chet tili nafaqat o‘qitishning maqsadi, balki ta’lim jarayonini amalga oshirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shuningdek, til insonlar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlash, ijtimoiylashuv jarayonini qo‘llab-quvvatlash, shaxsning o‘zligini anglashiga xizmat qilish hamda o‘rganilayotgan til sohiblarining madaniyati va an’analari bilan tanishtirish vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, chet tilini o‘zlashtirish jarayoni ona tilini egallashdan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Bu farqlar tilni o‘zlashtirish usullari, axborot mazmuni, uning predmetli-kommunikativ faoliyat bilan bog‘liqligi, bajaradigan funksiyalari hamda o‘quvchilarning yosh va rivojlanish xususiyatlari bilan izohlanadi [5;184-b.].

E.V.Turkovskaya kommunikativ yondashuvning faoliyatga yo‘naltirilgan xarakterini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, nutqiy muloqot insonning ijtimoiy hamkorlik jarayonida amalga oshiriladigan faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilib, ularga o‘z fikr va qarashlarini erkin ifodalash imkonini yaratadi. Shu sababli dars jarayonida til qoidalarini mukammal bilishdan ko‘ra o‘quvchining o‘z fikrini mustaqil bayon qila olishi muhimroq sanaladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlashi, ularning mustaqil fikr bildirishiga rag‘bat yaratishi lozim. Muloqot mazmuniga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan ayrim til xatolari esa o‘quv jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilinadi. Darslarda qo‘llaniladigan materiallar o‘qituvchining kommunikativ maqsadlariga hamda o‘quvchilarning nutqiy va tafakkuriy imkoniyatlariga mos bo‘lishi kerak. Shuningdek, pedagog va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hurmat, tushunish va qo‘llab-quvvatlash tamoyillari asosida tashkil etilishi zarur [1;68-b.].

L.N.Golubning fikricha, chet tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuvning markazida subyekt–subyekt munosabatlariga asoslangan muloqot modeli turishi lozim. Bunday modelda o‘quvchi ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki faol va ijodkor subyekt sifatida namoyon bo‘ladi, o‘qituvchi esa uning faoliyatini yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi subyekt vazifasini bajaradi. Shu bois pedagog o‘quvchilarning tashabbuskorligini rivojlantirish, ularda mustaqil va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratishi zarur. O‘quvchilar ta’lim jarayoni aynan ularning faol ishtirokiga yo‘naltirilganligini his etishlari, bunda ularning qiziqishlari, hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va hissiy kechinmalari hisobga olinishi kerak. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, dars mazmuni o‘quvchilar uchun dolzarb bo‘lgan hayotiy masalalar muhokamasiga asoslanishi, tayyor matnlar va standart mavzular esa ikkinchi darajali o‘rin egallashi maqsadga muvofiqdir [6;64-b.].

A.V.Konisheva kommunikativ yondashuvning muhim tamoyillaridan biri sifatida funksionallikni ko‘rsatadi. Uning mazmuni shundan iboratki, nutqiy faoliyat grammatika, leksika va fonetikaning uzviy birligidan tashkil topadi hamda ular real muloqot jarayonida bir-biridan ajralgan holda qo‘llanilmaydi. Shu sababli ushbu tarkibiy qismlarni o‘zlashtirish ham alohida emas, balki nutqiy faoliyat jarayonida birgalikda amalga oshirilishi kerak. Bunda o‘quvchilar til vositalarining o‘zini emas, balki ular bajaradigan kommunikativ funksiyalarni egallashlari muhim hisoblanadi. Ta’lim jarayonida funksionallik o‘quvchilarning muayyan nutqiy maqsadlarni ifodalashiga xizmat qiladigan materiallarni tanlash va tizimlashtirish orqali ta’minlanadi. Natijada o‘quvchilar va o‘qituvchining kommunikativ jihatdan maqsadga muvofiq xatti-harakatlari shakllanadi [7;304-b.].

E.V. Turkovskayaning ta’kidlashicha, kommunikativ yondashuv asosidagi darslarda o‘quvchilarda turli kommunikativ strategiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, suhbatdoshning e’tiborini saqlab qolish, o‘z fikrining to‘g‘ri tushunilishini aniqlashtiruvchi savollar yoki qayta so‘rashlar orqali ta’minlash, sinonimlar, parafrazalar va izohlardan foydalanish kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi. Bundan tashqari, o‘quvchilar mimika, imo-ishora kabi noverbal vositalardan foydalanish, til bilimlari yetarli bo‘lmagan hollarda grammatik konstruksiyalarni soddalashtirish yoki yordam so‘rash usullarini ham egallashlari kerak. Kommunikativ strategiyalar qatoriga ayrim nutqiy xatolarni e’tibordan chetda qoldirish hamda mavzuni o‘zgartirish yoki kengaytirish orqali suhbatni davom ettira olish qobiliyati ham kiradi [1;113-b.].

E.I.Passov kommunikativ ta’limning bir qator muhim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, o‘quvchilarning faoliyati aniq maqsadga yo‘naltirilgan va ichki motivatsiya bilan ta’minlangan bo‘lishi zarur. Ta’lim jarayonidagi har bir faoliyat turi o‘quvchi uchun shaxsiy ahamiyat kasb etishi, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. Kommunikativ yondashuv shuningdek, o‘quvchilarning nutqiy va tafakkuriy faolligini talab qiladi, ya’ni, ular muloqot jarayonida doimiy ravishda ishtirok etib, kommu-

nikativ hamda bilish faoliyatini birgalikda amalga oshirishlari kerak. O‘quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mavzuga nisbatan munosabati ularning erkin fikr bildirishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, nutqiy muloqot boshqa faoliyat turlari, jumladan, o‘quv-bilish, maishiy, ijtimoiy, badiiy va sport faoliyatlari bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi kerak. Dars jarayonida o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik muhiti yaratilishi, ular bir-birining faoliyatini muvofiqlashtirishi, yordam ko‘rsatishi va o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirishi muhim hisoblanadi. Kommunikativ ta’limning yana bir muhim belgisi situativlik bo‘lib, bunda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi nutqiy muloqot real yoki shartli vaziyatlar asosida tashkil etiladi hamda o‘quvchilarning kommunikativ pozitsiyalari inobatga olinadi.

Passov, shuningdek, ta’lim jarayonida mazmuniy, hissiy va shaxsiy darajalardagi muloqotning mavjudligini zarur deb hisoblaydi. O‘quv materiallari muayyan muammolar asosida tanlanishi, bu esa o‘quvchilarning fikrlash va munozara olib borish faolligini rag‘batlantirishi lozim. Kommunikativ ta’limda til birliklarining shaklidan ko‘ra ular bajaradigan kommunikativ funksiyalar ustuvor ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o‘quvchilar tayyor ma’lumotlarni yod olish va qayta takrorlash bilan cheklanib qolmasdan, yangi vaziyatlarda mustaqil fikr yuritishlari va ijodiy yondashishlari kerak. O‘quv materiallari mazmunan boy, axborotga boy hamda o‘quvchilarda qiziqish uyg‘ota oladigan bo‘lishi zarur. Shuningdek, muloqot jarayonida verbal va noverbal vositalardan maqsadga muvofiq va ifodali foydalanish ham muhim o‘rin tutadi [5;184-b.].

Xorijiy tadqiqotchilar ham kommunikativ ta’limning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatib o‘tadilar. Ularning fikricha, muloqot jarayonida eng muhim omil nutqning mazmuni hisoblanadi, til shakli va grammatik tuzilishi esa ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Darslarda qo‘llaniladigan dialoglar o‘quvchilar tomonidan yodlab olinmasligi, balki real kommunikativ ehtiyojlar asosida qurilishi kerak. Yangi leksik birliklar albatta kontekst orqali taqdim etilishi lozim, chunki tilni o‘rganish, avvalo, muloqot qilishni o‘rganish demakdir.

L.B.Ikramova, A.A.Ikramova va D.S.Ruziyevalarning fikricha, kommunikativ kompetensiya bir nechta tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Ulardan birinchisi lingvistik kompetensiya bo‘lib, u til materiallarini nutqiy muloqotda samarali qo‘llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Ikkinchisi sotsiolingvistik kompetensiya bo‘lib, til vositalarini muayyan kommunikativ vaziyatga mos ravishda tanlash va qo‘llashni nazarda tutadi. Shuningdek, ijtimoiy kompetensiya insonning boshqalar bilan samarali muloqot o‘rnatish qobiliyatini ifodalasa, diskursiv kompetensiya muloqot jarayonida aytilgan fikrlarni tushunish hamda nutqning mantiqiy va mazmuniy yaxlitligini ta’minlash imkonini beradi. Strategik kompetensiya esa o‘rganilayotgan tilga xos madaniy va ijtimoiy xususiyatlarni bilish hamda ulardan kommunikativ faoliyatda foydalanishni qamrab oladi [8].

Mazkur tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chet tiliga o‘qitishda kommunikativ yondashuv masalalariga bag‘ishlanganligi sababli, boshlang‘ich umumiy ta’limning namunaviy o‘quv dasturida chet tili faniga qo‘yilgan talablarni ko‘rib chiqish muhimdir. Ayniqsa, og‘zaki muloqotning asosini tashkil etuvchi gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratiladi. Dastur talablariga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim bitiruvchilari ingliz tilida nutqiy odob me’yorlariga rioya qilgan holda sodda dialoglar tuzish va ularni ijro etish, rasmlar, predmetlar yoki personajlarni tavsiflay olish, o‘zlari, oilalari va do‘stlari haqida qisqacha hikoya qila olish ko‘nikmalarini egallashlari kerak. Bundan tashqari, ular o‘qituvchi va tengdoshlarining nutqini tinglab tushunish, eshitilgan ma’lumotga verbal yoki noverbal vositalar orqali munosabat bildirish hamda tanish til materiallari asosida tuzilgan audiomatnlarni idrok eta olishlari lozim.

Shu bilan birga, o‘quvchilarda qo‘shimcha ravishda bolalar folkloriga oid kichik asarlarni ifodali aytib berish, o‘qilgan matn mazmunini qisqacha bayon qilish, qahramonlarga tavsif berish, audiomatnlarni tinglab asosiy ma’lumotlarni tushunish hamda notanish leksik birliklar uchragan hollarda til taxminidan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati ham yaratiladi.

Davlat ta’lim standarti kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni ikki asosiy yo‘nalish orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Birinchi yo‘nalish o‘quv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, u fan dasturlari va o‘quv-metodik majmualar asosida tashkil etiladi. Ikkinchi yo‘nalish esa sinfdan tashqari faoliyatni qamrab oladi va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan turli dasturlarni amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu holatda ta’lim muassasalari metodik tavsiyalarga tayangan holda sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarini mustaqil ravishda belgilash huquqiga ega bo‘ladilar. Bunday faoliyat sport-sog‘lomlashtirish, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy, umumintellektual hamda umumiy madaniy yo‘nalishlarda tashkil etilishi mumkin.

Shu bilan birga, kommunikativ yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida turli muammolar va to‘siqlar ham yuzaga kelishi mumkin. V.A.Maraxova bunday qiyinchiliklarning bir nechtasini ajratib ko‘rsatadi:

Birinchidan, jamiyatda kommunikativ madaniyat darajasining pasayishi va shaxslararo mu-loqotning zamonaviy axborot texnologiyalari hamda elektron qurilmalar orqali amalga oshi-rilishi bolalarning bevosita muloqot ko‘nikmalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur holat, hatto maktabgacha yosh davridan boshlab kuzatiladi.

Ikkinchidan, umumta’lim maktablarining birinchi sinfiga kelayotgan ayrim bolalarning tayyorgarlik darajasi yetarli emasligi ham kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Bu nafaqat bilim va ko‘nikmalarning kamligi, balki guruhda hamkorlik qilish, tengdoshlar va kattalar bilan samarali muloqot o‘rnatishdagi qiyinchiliklarda ham namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, yangi avlod ta’lim standartlari amaliyotga joriy etilganiga qaramay, ayrim pedagoglar hanuzgacha eski va yangi standartlar o‘rtasidagi farqlarni to‘liq anglamagan holda faoliyat yuritmoqdalar. Natijada ular hamkorlikka asoslangan ta’lim modelidan ko‘ra avtoritar uslubni afzal ko‘radilar, bu esa kommunikativ yondashuv talablariga mos kelmaydi.

To‘rtinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tizimli ravishda qo‘llanilmasligi yoki ulardan faqat ayrim elementlar darajasida foydalanilishi ham muhim muammolardan biridir. Ta’lim jarayonida qolipga solingan faoliyat, o‘quvchilarning bir-biridan ajratilgan holda ishlashi, mustaqillikning yetarli rivojlanmaganligi va passivlik kommunikativ ta’lim samaradorligini pasaytiradi hamda o‘quvchilarning motivatsiyasiga salbiy ta’sir qiladi.

Beshinchidan, sinfdan tashqari faoliyat o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilishi kerak bo‘lsa-da, amaliyotda ba’zan u an’anaviy fan mashg‘ulotlari bilan almashtiriladi. Bu esa sinfdan tashqari faoliyatning maqsad va vazifalariga zid bo‘lib, o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishi hamda kommunikativ kompetensiyasining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oltinchidan, kommunikativ ta’lim ko‘pincha faqat maktab doirasida amalga oshirilib, oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlik yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaydi. Ota-onalarning bandligi, ta’lim jarayonida faol ishtirok etishni istamasligi yoki boshqa omillar tufayli bolalarning muloqot ko‘nikmalari oilada yetarlicha rivojlanmaydi [9; 24–25].

Bizning fikrimizcha, aynan ushbu muammolar boshlang‘ich sinflarda kommunikativ yondashuvni faol qo‘llash zaruratini yanada kuchaytiradi. Shu sababli tadqiqotning amaliy qismida chet tili darslarida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladigan maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqish rejalashtirilgan.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi nazariy tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, kommunikativ yondashuv chet tilini o‘qitishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Garchi zamonaviy metodikada ayrim hollarda boshqa yondashuvlar bilan bir qatorda qo‘llanayotgan bo‘lsa-da, uning ahamiyati saqlanib qolmoqda. Mazkur yondashuvning asosiy ustunligi ta’lim jarayonining nutqiy yo‘nalganligida hamda o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilganligidadir. Bunda asosiy e’tibor tayyor nutq namunalarini yoki grammatik konstruksiyalarni yodlashga emas, balki real muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Natijada o‘quvchilar o‘rganayotgan til sohiblari bilan erkin va samarali muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bois keyingi bo‘limda boshlang‘ich ta’lim bosqi-

chida kommunikativ yondashuvni amalga oshirishning asosiy tamoyillari hamda kichik yoshdagi o‘quvchilarni o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metodlar tahlil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Турковская Е.В. Содержательная сущность коммуникативного подхода в обучении иностранным языкам. “Иностранные языки в вузе и школе”. Под общ. ред. С.В.Николаенко, Л.М.Вардомацкого, 2017, с. 67–68.

(2). Savignon S.J. «Communicative language teaching». In Byram, Michael. Routledge Encyclopedia of Language Teaching and Learning. London, Routledge, 2000, p. 125–129.

(3). Волжанина А.В. История возникновения и развития коммуникативного метода обучения иностранному языку. Проблемы, перспективы и направления инновационного развития науки. Сб. статей по итогам Международной научно-практической конференции, 2017, с. 58–62.

(4). Richards J.C. Approaches and Methods in Language Teaching J.C.Richards, T.S.Rodgers. Cambridge: Cambridge University Press, 2001, 171 p.

(5). Пассов Е.И. Коммуникативное иноязычное образование: готовим к диалогу культур. Е.И.Пассов. Минск, ООО «Лексис», 2003, 184 с.

(6). Голуб Л.Н. Коммуникативный подход в обучении. Вестник Брянской государственной сельскохозяйственной академии, 2017, с. 64–67.

(7). Конышева А.В. Современные методы обучения английскому языку. Минск, Тетра Системс, 2001, 304 с.

(8). Икрамова Л.Б. Сущность коммуникативного метода обучения иностранным языкам. Б.Икрамова, А.А.Икрамова, Д.С.Рузиева. “Междисциплинарные исследования в науке и образовании. 2014, № 3.

(9). Марахова В.А. Основные трудности формирования коммуникативных универсальных учебных действий у младших школьников. Вестник Московского государственного областного университета, 2013, № 3, с. 23–26.

Palvannazirova Yulduz Hasanboy qizi (Urganch davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti, Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi pedagogika fani o‘qituvchisi; https://orcid.org/0009-0000-9374-468X; yulduzpalvannazirova@gmail.com)

TALABA-YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH SAMARADORLIGINI TA’MINLOVCHI PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar muammosi tadqiq etilgan. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda oilaviy hayotga tayyorgarlik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-tahliliy yondashuv, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda ilmiy manbalarni kontent tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga samarali tayyorlash oilaviy qadriyatlarni singdirish, ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, interaktiv pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *oilaviy maslahat, pedagogik shart-sharoitlar, oilaviy qadriyatlar, kompetensiyaviy yondashuv, ma’naviy-axloqiy tarbiya, trening interaktiv pedagogik texnologiyalar.*

Палванназирова Юлдуз Хасанбой кизи (Базовый докторант Ургенчского государственного педагогического института; Преподаватель педагогики Центра педагогического мастерства Хорезмской области; ORCID: https://orcid.org/0009-0000-9374-468X;
E-mail: yulduzpalvannazirova@gmail.com)

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. *В данной статье исследуется проблема педагогических условий, обеспечивающих эффективность подготовки студентов к семейной жизни. С этой точки зрения основной целью исследования является выявление педагогических возможностей формирования у студентов компетенций готовности к семейной жизни. В процессе исследования были использованы методы анализа педагогической и психологической литературы, сравнительно-аналитический подход, систематизация, обобщение и контент-анализ научных источников. Результаты исследования показали, что важное значение для эффективной подготовки студентов к семейной жизни имеют формирование семейных ценностей, усиление духовно-нравственного воспитания, развитие практи-*